

# «KATTA.UZ» BO'YICHA OFERTA

## 1. Kirish

### Joriy sharoitlar.

«Katta.uz» - bu ekotizim bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Mobil ilova;
- Mobil o'yinlar seriyasi;
- Sovrinlar tanlovining vositasi.

Ushbu ekotizim O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., O'zbekiston Ovozi ko'chasi, 2-uy manzilda joylashgan «SAB-GAMES» mobil o'yinlar studiyasi (keyingi o'rinlarda **SAB-GAMES** yoki **biz**) tomonidan taqdim etiladi. «Katta.uz» dan va ilovada raqamli kontentdan foydalanish (keyingi o'rinlarda birgalikda **Kontent** deb ataladi) ushbu Foydalanish shartlari bilan tartibga solinadi.

## 2. «Katta.uz» dan foydalanish

### Kontentga kirish huquqi.

«Katta.uz» ilovasi ichidagi yetakchilar jadvali, o'ynaladigan sovrinlar ro'yxati, yutuqlar arxivi va o'yinlarga kirish huquqi.

Foydalanuvchi «Katta.uz» dan «Katta.uz» ekotizimida yagona liderbord bilan birlashtirilgan o'yinlarni yuklab olish, g'oliblar reytingini ko'rish, o'yinlarda to'plagan ballarini kuzatish, yangi tanlovlar va sovrinlarni nazorat qilish uchun foydalanishi mumkin.

Shuningdek, foydalanuvchilarga Internetga ulanish va mos dasturiy ta'minot kerak bo'ladi.

«Katta.uz» dan foydalanish uchun ushbu ilovada ro'yxatdan o'tish kerak. Ushbu ilovadan foydalanish uchun yosh cheklovlari yo'q. Tanlov ishtirokchisi (Foydalanuvchi) – «Katta.uz» mobil ilovasida Foydalanuvchi sifatida ro'yxatdan o'tish tartib-taomilini o'tgan va «Katta.uz» mobil ilovasida joylashtirilgan foydalanuvchilar shartnomasini Akcept qilish orqali «Katta.uz» bilan Shartnoma tuzib, Tanlovda qatnashish huquqiga ega 16 yoshga to'lgan O'zbekiston Respublikasining layoqatli, jismoniy shaxsi.

**Yangilanishlar.** «Katta.uz» ilovasi, tegishli qo'llab-quvvatlash kutubxonalari yoki Kontent xatolarni tuzatish, funktsionallikni kengaytirish, yetishmayotgan plaginlar va yangi versiyalarni o'rnatish (keyingi o'rinlarda birgalikda **Yangilanishlar** deb ataladi) kabi maqsadlarda yangilanishlarni talab qilishi mumkin.

«Katta.uz» bilan ishlash, shuningdek, Kontentni olish, yuklash va undan foydalanish uchun yangilanishlar zarur bo'lishi mumkin.

Ushbu Shartlarni qabul qilish va «Katta.uz» dan foydalanish orqali siz Yangilanishlarni avtomatik ravishda o'rnatishga rozilik bildirasiz.

Foydalanuvchi qurilmasidagi va ilovalar do'konidagi sozlamalardan qat'iy nazar, agar Kontentni yangilash tanqidiy zaiflikni bartaraf etishga yordam bersa, biz ushbu yangilash huquqini saqlab qolamiz.

**Shaxsiy ma'lumotlar.** «Katta.uz» dan foydalanishda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylikni ta'minlash tamoyillari Maxfiylik siyosatida bayon etilgan.

Foydalanuvchining ismi va telefon raqami kabi shaxsiy ma'lumotlari Maxfiylik siyosatiga muvofiq uchinchi shaxslar va/yoki boshqa yetkazib beruvchilarga berilmaydi.

Yetakchilar jadvalida va g'oliblar haqida ma'lumotlarda boshqa foydalanuvchilarga ishtirokchi yoki g'olibning yashirin raqami ko'rinadi.

### **3. «Katta.uz» dan Tanlovlarni o'tkazish qoidalari**

#### 1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Qoidalar reklama Tanlovlarini (keyingi o'rinlarda «Tanlovlar») o'tkazish tartibini tavsiflaydi.

1.2. Tanlov o'tkazish hududi - O'zbekiston Respublikasi, «Katta.uz» mobil ilovasi.

1.3. Tanlov e'tiborni jalb qilish, qiziqishni uyg'otish yoki qo'llab-quvvatlash shuningdek, uyali aloqa operatorlari va mobil ilovalar hamda o'yinlar bozorida targ'ib qilish maqsadida o'tkaziladi.

1.4. Tanlovlar va ularni o'tkazish shartlari haqida ma'lumotlar «Katta.uz» mobil ilovasida joylashtirib boriladi.

1.5. Apple Inc. va Googlening tanlovlarga hech qanday aloqasi yo'q!

1.6. «Katta.uz» mobil ilovasida tanlovlarning ikki turi mavjud:

1. «Total» tanlovi - ushbu tanlovda «Katta.uz» ekotizimida mavjud bo'lgan tanlov ishtirokchisi ma'lum vaqt oralig'ida o'ynab barcha mobil o'yinlardan to'plagan ballari jamlanadi.

G'oliblar joriy tanlov shartlariga muvofiq aniqlanadi.

2. «Best» tanlovi - ushbu tanlovda «Katta.uz» ilovasining ekotizimida mavjud o'yinlardan birini o'tish jarayonida olgan eng yaxshi shaxsiy natijalari hisoblanadi. G'olib «Katta.uz» mobil ilovasining liderbordiga muvofiq Best

toifasida joylashgan ma'lum miqdordagi eng yaxshi o'yinchilar orasidan tasodifiy tanlov asosida (randomayzer yordamida) aniqlanadi.

1.7. Ishtirokchi - ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan talablarga javob beradigan va tanlov shartlarida ko'rsatilgan harakatlarni bajargan jismoniy shaxs.

1.8. Tanlov shartlari - «Katta.uz» mobil ilovasi doirasida tanlovlar va sovrinlar o'yinlarini o'tkazish shartlari.

Aktsiyalar va tanlovlar shartlari tanlovlarni o'tkazish muddatiga muvofiq o'zgarishi mumkin.

1.9. G'olib - tanlov shartlariga muvofiq sovrinlar o'yinida yutgan Ishtirokchi. Har bir Ishtirokchi «Total» va «Best» tanlovlarining G'olibiga aylanishi mumkin. Barcha ishtirokchilar ikkala tanlovda ham qatnashadilar.

2.0. Tanlov tashkilotchisi: «SAB-GAMES» MChJ, manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., O'zbekiston Ovozi ko'chasi, 2-uy va «ANY MOBILE» MChJ, manzili: O'zbekiston Respublikasi, 100047, Toshkent sh., O'zbekiston Ovozi ko'chasi, 2-uy.

2.1. «SAB-GAMES» MChJ «Total» va «Best» toifadagi sovrinlarni berish uchun tanlov ishtirokchilarining shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash va saqlashni amalga oshiradi.

2.2. Tashkilotchi o'z xohishiga ko'ra, Ishtirokchilarga sabablarini tushuntirmasdan va ular bilan yozishmalarga kirishmagan holda quyidagi huquqlarga ega:

- Ushbu Shartlarga rioya qilmaslik fakti aniqlangan taqdirda Ishtirokchiga Xizmatni taqdim etishni rad etish.
- Ushbu Shartlarda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, Ishtirokchilar bilan yozma muzokaralar yoki boshqa aloqalar o'tkazmaslik.
- Ishtirokchi Xizmatni olishdan bosh tortgan bo'lsa, sovrinlarning birortasini olmaganligiga tegishli Ishtirokchining da'vosini ko'rib chiqishni rad etish.

- Ishtirokchilardan zarur ma'lumotlarni talab etish (zaruriyat tug'iladigan bo'lsa).
- Tanlov g'oliblari bilan Tanlovda ishtirok etish haqida reklama suhbatlarini tashkil etish va o'tkazish, shu jumladan suhbatni Internet tarmog'ida jamoatga yetkazish, suhbatni televideniya ko'rsatish va shu bilan birga suhbatdan boshqa ommaviy axborot vositalari uchun foydalanish huquqini saqlab qoladi; Tanlov Ishtirokchilariga nisbatan Yutib olingan sovrinlarni olganliklari munosabati bilan foto- va video suratga olishlarni tashkil etish va o'tkazish, Ishtirokchilar ishtirokidagi tayyor foto- va video-materiallarni Internet tarmog'ida, shu jumladan Tashkilotchining internet-manbalarida nashr etish, Tanlov Ishtirokchisi suratidan qo'shimcha ogohlantirmasdan va haq to'lamasdan foydalanish.
- Tashkilotchida ma'lumotlarni soxtalashtirayotganligi yoki Tanlovda ishtirok etish uchun zarur bo'lgan har qanday ma'lumotlarni soxtalashtirishdan foyda olayotganligi haqida asosli shubhalar paydo bo'lgan taqdirda Tanlov Ishtirokchilarining har qanday xatti-harakatlarini bekor qilish, shuningdek har qanday shaxsga Tanlovda keyingi ishtirokini taqiqlash.
- Ma'lumotlarni joylashtirish orqali ularni darhol Tanlov ishtirokchilari e'tiboriga havola qilgan holda, istalgan vaqtda bir tomonlama tartibda ushbu Shartlarga o'zgartirishlar kiritish.
- Tanlov o'tkazilishiga xalaqit beradigan va natijada Tanlov keyingi o'tkazilishining imkoni bo'lmagan holatlar yuzaga kelgan taqdirda, Tanlov o'tkazishni vaqtincha to'xtatib turish yoki to'liq to'xtatish.

2.3. Mobil telefon raqami jismoniy shaxsga rasmiylashtirilgan va oldindan to'lov tizimi abonentlari uchun mavjud tarif rejasiga ega bo'lishi kerak, «Bolajon», «ProInternet 1» bundan mustasno.

2.4. Tanlov Tashkilotchisi bilan bog'liq bo'lmagan holatlarga ko'ra o'yinda erishgan natijalar qayd etilmasligi mumkin. Tanlov Tashkilotchisi bunday holatlarga hech qanday kafolat bermaydi va bu uchun javobgar emas.

## **4. Tanlovlarni o'tkazish muddatlari**

4.1. Tanlovlarning umumiy o'tkazish muddatlari, sovrinlar miqdori, tanlov boshlanishidan to sovrinlar berilishigacha bo'lgan davr va tanlovlarni o'tkazishning batafsil shartlari har bir yangi Tanlov boshlanishidan ma'lum vaqt oldin o'z vaqtida ko'rsatiladi.

4.2. Tanlovlar o'tkazilishining oraliq natijalarini «Katta.uz» mobil ilovasida yoki <https://katta.uz/> veb-saytida ko'rish mumkin.